Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining jismoniy qobiliyatlarini oshirishga, funksional imkoniyatlarini takomillashtirishga, hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarning darajasini o'zlashtirish hamda takrorlab odat qildirish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan [3; 5-16-b.].

Sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligining asosiy maqsadi tananing funksional imkoniyatlarini optimallashtirishdir. Uni hal qilish uchun texnika va taktikalar, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va boshqa sport turlaridan (og'ir atletika, gimnastika, sport o'yinlari, yengil atletika va boshqalar) elementlardan iborat keng ko'lamli o'quv vositalaridan foydalaniladi. Vazifalarga qarab, bu mashqlar o'ziga xos jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan [138; 64-b.].

Yordamchi jismoniy tayyorgarlik maxsus harakat malakalarini rivojlantirishga qaratilgan katta hajmdagi ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus asosini yaratishga mo'ljallangan. U ancha tor va o'ziga xos yo'nalishga ega hamda quyidagi vazifalarni hal etadi:

- asosan kurash uchun ko'proq xos bo'lgan sifatlarni rivojlantirish;
- kurashchi harakatlarida katta darajada ishtirok etuvchi mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yordamchi jismoniy tayyorgarlik musobaqalarda eng ko'p talab qilinadigan jismoniy sifatlari va harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus mo'ljallangan mashqlarni o'z ichiga oladi. Shunday mashqlar orasida quyidagilarni ajratish mumkin: kurashning turli usullarini ishora orqali bajarish; kurashchilar manekeni bilan mashqlar.

Kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarligi harakatlanish sifatlarini kurashchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlari tomonidan qo'llaniladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga ajratilgan [4; 266-b.].

Jismoniy sifatlardan bir bu kuch. Kuch deganda kurashchining raqib qarshiligini yengib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlarini ajratish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchi, kuch chidamliligi. Kurashchi tezkorligi — bu uning mumkin qadar qisqa vaqt ichida ayrim harakat va usullarni bajarish qobiliyatidir. Tezkorlik sifatini yaxshi rivojlantirmasdan kurashda yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. O'z raqibidan hatto

sekundning yuzdan bir bo'lagiga tezroq harakat qiladigan kurashchi uning oldida muhim ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Kurashchi tezkorligi ko'p jihatdan uning asab jarayonlari harakatchanligiga, sharoitlarga, raqib harakatlaridagi ko'rimsiz o'zgarishlarni sezishga bo'lgan sezgirlik unda qay darajada rivojlanganligiga, bellashuvda har safar yuzaga kelgan vaziyatni bir zumda qabul qilish va to'g'ri baholay olish maqsadida, taktik harakatlarni o'z vaqtida aniq bajarilishiga bog'liq [5; 204-b.].

Kurashchi chaqqonligini rivojlantirishning hamma vositalarini ikkita bo'limga ajratish maqsadga muvofiqdir: umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari va maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari. Umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari umuman harakatlanish tajribasi va harakat koordinatsiyasini boyitishga qaratilgan. Maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari kurashchining o'ziga xos maxsus harakatlanish koordinatsiya hamda musobaqa faoliyatining favqulodda sharoitda o'z harakatlarini baholay olish va qayta qurish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan. [6; 353-354-b.].

Egiluvchanlik — bu kurashchining katta amplitudada harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Egiluvchanlik bo'g'imlardagi harakatchanlik bilan aniqlanadi. Bu o'z navbatida bir qator omillarga bog'liq: bo'g'im suyaklarining tuzilishi, paylar, mushaklar cho'ziluvchanligi va ularning cho'zilish qobiliyati. Bir nechta egiluvchanlik turlari mavjud.

Faol egiluvchanlik – bu shaxsiy mushak kuchlanishlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir.

Sust egiluvchanlik – bu tashqi kuchlar: og'irlik va raqib harakatlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir. Sust egiluvchanlik hajmi faol egiluvchanlikning tegishli ko'rsatkichlaridan yuqori.

Dinamik egiluvchanlik – dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Statik egiluvchanlik – statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik – turli yo'nalishlarda eng yirik bo'g'imlarda katta amplituda bilan harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Maxsus egiluvchanlik – kurashchining texnik-taktik xususiyatlarga tegishli bo'g'imlar va yo'nalishlarda harakatlarni katta amplituda bilan bajarish qobiliyatidir. Cho'ziltiruvchi mashqlari: oddiy, prujinali harakatlar, o'zini ushlagan holda siltanishli, tashqi yordam bilan bajariladigan harakatlar egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi [7; 4-7-b.].

Muhokama. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarni texnik harakatlarga o'rgatishda ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish oid mashqlar majmuasining bir qismi bilan tanishib chiqsak. Bu mashqlar majmuasida berilgan mashqlar uchun yordamlashtiruvchi, ushbu mashqlarni takomillashtiruvchi mashqlar qismlarga bo'lib olingan.

Jadval 1

Dzyudo texnik usullarni takomillashtirishda jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlari majmuasini qo'llash uslubiyati

№	Har bir jismoniy sifat uchun tanlangan mashqlar mazmuni		Mashqni bajarishga ketadigan oʻrtacha vaqti	Har bir mashqni bajarish va takrorlashlar soni	YuQS zarba/daq	Dam olish vaqti
I BLOK. TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR MAJMUASI						
1	30 metr masofaga yugurish	30 metr masofaga yugurish (yuqori startdan chiqish orqali)	8-10 soniya va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 6-12 marta takrorlanadi.	160-180	Mashqlar orasida 1.5-2 daq, seriyalar orasi 3-4 daq
		30 metr masofaga yugurish (sherigi orqasida tazidan ushlab yarim qarshilik bilan yuguradi)	10-15 soniya va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 6-10 marta takrorlanadi.	165-185	Mashqlar orasida 1.5-2 daq, seriyalar orasi 3-4 daq
		4x30 soniya tizzani yuqoriga koʻtarib sakrash	30 soniya va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	170-185	Mashqlar orasida 1.5-2 daq, seriyalar orasi 3-4 daq
		Sherik bilan yelka-yelkaga tegib “signal”da 10 m oldinga chiqib ketish	2-5 soniya va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	160-175	Mashqlar orasida 40-60 soniya, seriyalar orasi 2-3 daq
2	60 metr masofaga yugurish	70 metr masofaga yugurish (sherigi — 50 metr masofaga yugurish)	10-15 soniya va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 6-10 marta takrorlanadi.	165-180	Mashqlar orasida 1.5-2 daq, seriyalar orasi 3-4 daq
		60 metr masofaga yugurish - 10 m tezlanish bilan yugurib, keyingi 50 m tezlikka yugurish)	10-15 daq. va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 4-8 marta takrorlanadi.	170-185	Mashqlar orasida 2.5-3 daq, seriyalar orasi 3-4 daq
		100 metr masofaga yugurish (sherigi oldi tomonidan, yelkalaridan turtib yarim qarshilik koʻrsatadi 30 metr masofagacha)	1-2 daq. va undan ortiq	2-3 mashgʻulotdan iborat, 4-6 marta takrorlanadi	170-185	Mashqlar orasida 3-4 daq, seriyalar orasi 5 daq
		60 metr masofaga turli buyumlar orasidan yugurish	20-25 soniya. va undan ortiq	1-2 mashgʻulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	160-175	Mashqlar orasida 1.5-2 daq, seriyalar orasi 2.5-3 daq
II BLOK. KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR MAJMUASI						
2	Qoʻllarga tayangan holda ularni bukib yozish	Polga qoʻllar va tizzalarga tayangan holda qoʻllarni bukib yozish	2-3 soniya va undan ortiq Seriya 15-25 soniya	2-3 mashgʻulotdan iborat, 8-12 marta takrorlanadi.	130-135	Mashqlar orasida 5-10 soniya, Seriyalar orasi 1-1.5 daq.
		Poldan 1 metr masofa balandlikda boʻlgan predmetga tayanib turgan holatda qoʻllarni bukib yozish	2-3 soniya va undan ortiq Seriya 15-25 soniy	2-3 mashgʻulotdan iborat, 10-15 marta takrorlanadi.	125-130	Mashqlar orasida 5-10 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq.

		Sherigi qo'lini yelkasiga qo'yib, biroz bosim bergan holda mashqni bajarish.	3-4 soniya va undan ortiq Seriya 15-20 soniya	2-3 mashg'ulotdan iborat, 6-8 marta takrorlanadi.	135-145	Mashqlar orasida 5-10 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq.
		Polga tayangan holda qo'llarni bukib yozish, pastga tushganda bir tizza yon tomonga olib kelinadi (tizzani qo'l tomon)	3-4 soniya va undan ortiq Seriya 20-25 soniya	2-3 mashg'ulotdan iborat, 8-10 marta takrorlanadi.	140-150	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq.
3	Turnikda tortilish	Sherik yordamida — sherik beldan yoki oyoqdan ushlab biroz ko'tarib turadi.	4-5 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 4-6 marta takrorlanadi.	145-150	Mashqlar orasida 40-50 soniya, Seriyalar orasi 2 daq.
		Turnikka tortilish va 3 soniya ushlab turish (kurashda ushlab qolish kuchini beradi)	5-6 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-5 marta takrorlanadi.	135-150	Mashqlar orasida 40-60 soniya, Seriyalar orasi 2-2.5 daq.
		Burilish bilan tortinish – yuqoriga chiqqanda tana yon tomonga buriladi	4-5 soniya va undan ortiq	3-4 mashg'ulotdan iborat, 6-8 marta takrorlanadi.	160-170	Mashqlar orasida 40-60 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq.
		Qo'shimcha mashqlar: Arqonga chiqish (qo'l kuchini rivojlantiradi) Planka (bel va qorin mushaklari mustahkam bo'lsa, tortinish osonlashadi)	10-15 soniya va undan ortiq 30-40 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-5 marta takrorlanadi. 2-3 mashg'ulotdan iborat, 2-3 marta takrorlanadi	150-170 120-140	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq. Mashqlar orasida 20-30 soniya, Seriyalar orasi 1-1.5 daq.
III BLOK. CHAQQONLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR MAJMUASI						
1	Arqon bilan sakrash	O'ng va chap oyoqlarda navbatma-navbat joyida sakrash	15-20 va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	135-145	Mashqlar orasida 40-50 soniya, Seriyalar orasi 1-1.5 daq
		Ikkala oyoqni juftlab joyida sakrash	15-20 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	140-150	Mashqlar orasida 40-50 soniya, Seriyalar orasi 1-1.5 daq
		Tizzalarni oldinga ko'tarib joyida sakrash	10-15 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 2-3 marta takrorlanadi.	145-155	Mashqlar orasida 40-60 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq
		Kombinatsion sakrash	20-25 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	145-155	Mashqlar orasida 50-60 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq
2	3x10 metrga mokisimon yugurish	100 metr masofaga yugurish	30-40 soniya. va undan ortiq	2-3 seriyadan iborat, 1-2 marta takrorlanadi	140-145	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq
		10 metr masofaga o'tirib sakrash	20-30 soniya va undan ortiq	2-3 seriyadan iborat, 2-3 marta takrorlanadi	135-140	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq
		10 masofaga tizzalarni oldinga ko'tarib yugurish	20-30soniya va undan ortiq	2-3 seriyadan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	140-145	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq

		5-6 ta konuslar orasidan zikzak yugurish	25-30 soniya va undan ortiq	2-3 seriyadan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	140-150	Mashqlar orasida 30-40 soniya, Seriyalar orasi 1.5-2 daq
IV BLOK. CHIDAMLILIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR MAJMUASI						
1	2500 metr masofaga yugurish	1000 metr masofaga vaqtga va vaqtsiz yugurish	5-6 dan 6-7 daq. va undan ortiq	1 marta takrorlanadi	150-160 140-150	Mashqlar orasida 3-5 daqiqa (yengil yurish va nafas mashqlari)
		1500 metr masofaga vaqtga va vaqtsiz yugurish	7-8 dan 8-10 daq. va undan ortiq	1 marta takrorlanadi	155-165 145-155	Mashqlar orasida 4-6 daq.
		2500 metr masofaga vaqtga va vaqtsiz yugurish	11-13 dan 13-15 daq. va undan ortiq	1 marta takrorlanadi	160-170 145-155	Mashqlar orasida 6-8 daq.
2	Erkin suzish mashqlari	100 metrga bir maromda suzish	2-3 daq va undan ortiq	2-3 marta takrorlanadi.	150-170	Mashqlar orasida 2-3 daq.
		Oraliqli suzish-50 metr tez, 50 metr sekin suzish	2-3 daq va undan ortiq	2-3 marta takrorlanadi.	160-170	Mashqlar orasida 2-3 daq.
		4 daqiqalik uzluksiz suzish	4-5 daq. va undan ortiq	1 marta takrorlanadi.	150-165	Mashqlar orasida 3-4 daq.
		Qo'llar doskaga tayanib, faqat oyoqlar bilan 25 metr suzish	30-40 soniya va undan ortiq	2-3 marta takrorlanadi.	150-160	Mashqlar orasida 45-60 soniya.
V BLOK. EGILUVCHANLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH MASHQLAR MAJMUASI						
1	Tik turgan holatdan ko'prik holatiga tushish va qaytib turish	Devorga teskari 1 metr masofada turish va orqaga devorga qo'llar bilan tayanib ko'prik holatiga tushish	10-12 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 4-6 marta takrorlanadi.	120-135	Mashqlar orasida 30-40 soniya,seriyalar orasi 1.5 daq.
		Sherigi yordamida ko'prik holatiga tushib chiqish	10-12 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-5 marta takrorlanadi.	115-130	Mashqlar orasida 40-50 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.
		Balandligi va yuzasi 1 metrni tashkil qiluvchi yumshoq predmet ustiga ko'prik holatiga tushish va qaytib turishda predmetga tayanib tik turishga harakat qilish	12-15 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 2-3 marta takrorlanadi.	120-135	Mashqlar orasida 30-40 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.
2	Ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tishlar	Yarim aylana bilan oshirish – to'liq aylanish emas, oyoqlarni faqat yarmigacha olib o'tish	10-12 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-5 marta takrorlanadi.	135-145	Mashqlar orasida 30-40 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.
		Oyoqlarni navbat bilan oshirish – chap oyoq orqaga, so'ng o'ng oyoq.	8-12 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 5-6 marta har bir oyog'iga takrorlanadi.	140-150	Mashqlar orasida 30-40 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.

		Sherik yordamida oyoqlarni bosh ustidan oshirish	8-10 soniya va undan ortiq	2-3 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi.	130-140	Mashqlar orasida 30-40 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.
3	Oyoqlarni keng yozib o'tirish (shpagat holati)	Kurash gilamida (oyoqlarni ikki yon tomonlarga cho'zgan holatda) oldinga yotish	15-20 soniya ushlab turish	2 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	100-115	Mashqlar orasida 20-30 soniya,seriyalar orasi 1.5 daq.
		Kurash gilamida (bir oyoq oldinga bukilgan, ikkinchisi orqaga yozilgan.Orqa oyoq tizza bilan yerga tekkizilmaydi) oldinga qadam bilan cho'zilish	Har bir oyoqqa 15-20soniya	2 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	105-120	Mashqlar orasida 20-30 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.
		O'tirgan holda bir oyoq orqaga bukilgan holda ikkinchi oyoqni oldinga cho'zilgan holda oyoqlar uchiga qo'llarni tekkazish	Har bir oyoqqa 15-20soniya	2 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	105-120	Mashqlar orasida 20-30 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq
		Devorga suyangon holda bir oyoqni yuqoriga ko'tarib cho'zish	Har bir oyoqqa 15-20soniya	2 mashg'ulotdan iborat, 3-4 marta takrorlanadi	110-125	Mashqlar orasida 30 soniya,seriyalar orasi 1.5-2 daq.

Izoh: ushbu jadvalda YuQS – yurak qisqarish sonini ifodalaydi.

Ushbu jadvalda siz boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh dzyudochilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun berilgan umumiy va maxsus mashqlar mavjud.

Natijalar. Mashqlar majmuasi asosida ishlab chiqilgan dasturga ko'ra beriladigan mashqlar haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari alohida to'g'arak shaklida olib borilgan. Bu mashqlarning samaradorlik ko'rsatkichlari esa maxsus mashqlarni bajarish nazorat testi orqali aniqlangan.

Jadval 2

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi turli vazn toifasidagi dzyudochilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini mashg'ulotlar ta'sirida o'sish sur'ati tadqiqot guruhi (n=18)

N	Oldinga 10 marta umbaloq oshish (vaqti, s)		10 metr masofaga tizzalab yurish (vaqti, s.)		Ko'prik holatda 10 metr masofani yurish (vaqti, s.)		10 soniya ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish (marta.)	
	Tad. boshi	Tad. oxiri	Tad. boshi	Tad. oxiri	Tad. boshi	Tad. oxiri	Tad. boshi	Tad.oxiri
1	9.7	9.0	5.4	4.6	8.7	7.0	11	15
2	9.1	8.6	5.9	4.1	9.6	8.7	7	12
3	9.5	9.0	4.9	4.0	9.5	8.9	11	13
4	10.4	9.6	5.7	4.1	8.5	8.0	11	12
5	10.8	9.5	4.7	3.9	8.1	6.2	9	14
6	10.9	9.7	5.6	3.9	7.4	6.8	10	11
7	11.3	10.8	5.6	4.9	8.9	8.2	11	12
8	11.5	10.7	5.5	4.6	10.4	8.7	9	11
9	12.5	11.9	5.1	4.4	8.4	7.7	9	13
10	12.9	12.1	6.1	5.0	9.6	8.1	8	11
11	12.3	11.7	6.5	5.8	12.6	11.8	8	12
12	11.8	10.4	6.9	5.1	14.8	13.1	8	12
13	12.5	12.0	7.2	6.1	9.4	7.6	8	10
14	14.2	13.6	7.3	6.7	13.9	12.2	7	9
15	14.5	13.8	8.6	7.6	15.3	14.7	8	11
16	12.1	11.6	9.1	7.1	13.6	11.8	5	10
$\bar{x}$	11.62	10.88	6.12	5.22	10.46	9.14	8.81	11.81
σ	1.50	1.55	1.28	1.15	2.62	2.55	1.77	1.56
V (%)	12.94	14.24	20.92	22.03	25.05	27.89	20.1	13.2

Izoh: ushbu jadvalda Tad.boshi.- tadqiqot boshida, Tad.oxiri-tadqiqot oxirida olingan natijalarni ifodalaydi. №- ushbu mashqlardagi natijalarni bajargan sportchilar sonini ko'rsatadi. $\bar{x}$ - o'rtacha arifmetik qiymat, σ -bu standart og'ish, V,%- variatsiya koeffitsiyentini ifodalaydi.

Birinchi mashqda tadqiqot boshida o'rtacha ko'rsatkich 11.62 s bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida 10.88 s gacha qisqargan. Bu natija o'rtacha **0.74 soniyaga (6.4%)** yaxshilanishni bildiradi.

Bu mashqda **vaqt kamayishi** sportchilarning chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyati oshganini ko'rsatadi. Standart og'ish (σ) 1.50 dan 1.55 gacha biroz oshgan, ya'ni ishtirokchilar orasida natijalar biroz farqlangan, lekin **variatsiya koeffitsiyenti (V%)** 12.94 dan 14.24% gacha o'sishi o'rta darajadagi barqarorlikni ko'rsatadi. O'rtacha natija yaxshilangan, ammo natijalardagi tarqoqlik biroz ortgan, bu esa individual rivojlanish sur'atlarining har xil bo'lganini bildiradi. Tadqiqot natijasi ishonchli va musbat yo'nalishda.

Ikkinchi mashqda o'rtacha vaqt 6.12 sekunddan 5.22 sekundgacha qisqargan, ya'ni **0.9 sekund (14.7%)** yaxshilanish kuzatilgan. Bu mashq pastki tananing kuchi va muvozanatni ifodalaydi — demak, **ko'nikma va tezlik ancha rivojlangan**. Standart og'ish 1.28 dan 1.15 gacha kamaygan, bu esa natijalarning **barqarorlashganini** bildiradi. Ammo variatsiya koeffitsiyenti 20.92% dan 22.03% gacha oshgani ishtirokchilar orasidagi farqlar biroz ko'payganini anglatadi.

Umumiy natija yaxshilangan, mashq bo'yicha rivojlanish samarali. Variatsiya yuqoriligi ayrim sportchilarda natijalar o'rtachadan past bo'lganini bildiradi, ammo umumiy ishonchlilik saqlanib qolgan.

Uchinchi mashqda o'rtacha vaqt 10.46 dan 9.14 sekundgacha qisqargan — **1.32 soniyalik (12.6%)** yaxshilanish mavjud. Bu mashq asosan **bel, qo'l va oyoq mushaklari kuchi, hamda egiluvchanlikni** sinaydi. Standart og'ish (σ) 2.62 dan 2.55 gacha biroz kamaygan, ammo variatsiya koeffitsiyenti 25.05% dan 27.89% gacha oshgan. Bu shuni bildiradiki, natijalar orasidagi tafovut biroz ortgan — ayrim ishtirokchilar kuchli o'sish ko'rsatgan, boshqalari esa pastroq rivojlangan. Mashq natijalari yaxshilangan, lekin o'quvchilar orasida o'zlashtirish darajalari farq qiladi. Rivojlanish samarali, ammo barqarorlik pastroq.

To'rtinchi mashqda tadqiqot boshida o'rtacha 8.81 marta bo'lgan ko'rsatkich tadqiqot oxirida 11.81 martaga yetgan, ya'ni **3.0 martalik (34%)** sezilarli o'sish bor. Bu mashq tananing koordinatsiyasi, orqa mushaklar kuchi va egiluvchanlik darajasini ifodalaydi. Standart og'ish 1.77 dan 1.56 gacha kamaygan — bu **barqarorlik oshganini** bildiradi. Shuningdek, variatsiya koeffitsiyenti 20.10% dan 13.20% gacha kamaygani natijalarning **bir tekis, ishonchli yaxshilanganini** ko'rsatadi. Eng samarali o'sish aynan shu mashqda kuzatilgan. Barqarorlik yuqori, ishtirokchilar o'rtasidagi tafovut kamaygan, natijalar ishonchli va ilmiy jihatdan sezilarli.

Jadval 3

Olingan natijalarning absolyut va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari


Mashq turi	Absolyut o'sish	Nisbiy o'sish (%)
Oldinga 10 marta o'mbaloq oshish	-0.74 s	+6.37 % yaxshilanish
10 m tizzalab yurish	-0.90 s	+14.7 % yaxshilanish
Ko'prik holatda 10 m yurish	-1.32 s	+12.6 % yaxshilanish
10 s bosh osha hatlab o'tish	+3.00 marta	+34.0 % yaxshilanish

Izoh: Manfiy qiymat (vaqtning kamayishi) — bu ijobiy o'sish, ya'ni mashqni tezroq bajarayotganini bildiradi.

Statistik tahlil natijalarini ham ko'rib chiqamiz.

Ko'rsatkich	Bosqich	O'rtacha qiymatlar tahlili
$\bar{x}$	Barcha mashqlarda yaxshilangan (kamayish yoki oshish yo'nalishida)	Mashqlar samarador
σ	Aksariyat mashqlarda biroz kamaygan	Natijalar barqarorlashgan
V%	Ko'prikda hatlab o'tishda keskin kamaygan (20.1 → 13.2%)	Eng ishonchli mashq
Umumiy ishonchlilik	Tadqiqot natijalari statistik jihatdan ishonchli, chunki o'rtacha qiymatlar ijobiy o'zgarish ko'rsatgan va V% ko'rsatkichlari <30% bo'lgan.	

Endi shu natijalarning o'sish ko'rsatkichlarini diagrammasini ko'rib chiqamiz.



Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tanlangan jismoniy mashqlar tizimli ravishda qo'llanilganda ishtirokchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada yaxshilandi. Tadqiqot davomida o'rganilgan barcha mashqlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar ($\bar{x}$) ijobiy o'zgarishlarni namoyon etdi. Jumladan, oldinga 10 marta o'mbaloq oshish mashqida vaqt o'rtacha 6,4 foizga qisqargan bo'lsa, 10 metr tizzalab yurish mashqida bu ko'rsatkich 14,7 foizni tashkil etdi. Ko'prik holatda 10 metr yurish mashqida 12,6 foizga, eng katta o'sish esa 10 soniya ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish mashqida — 34 foizga teng bo'ldi.

Standart og'ish (σ) ko'rsatkichlarining aksariyat hollarda kamaygani ishtirokchilar natijalarining barqarorlashganini bildiradi. Ayniqsa, "ko'prik holatida bosh osha hatlab o'tish" mashqida variatsiya koeffitsiyenti (V) 20,10 % dan 13,20 % gacha pasaygani bu mashq bo'yicha o'zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Barcha mashqlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyentlari 30 foizdan past bo'lib, bu esa tadqiqot natijalari ishonchli va ilmiy jihatdan asoslangan ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatdiki, tadqiqot davomida qo'llanilgan mashqlar bolalarning egiluvchanlik, muvofiqlashtirish, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Natijalar dinamikasi mashg'ulot dasturi to'g'ri tanlangani va uning ta'sir kuchi yuqori bo'lganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Akbarov A., Sportda matematik tahlil usullari, o'quv qo'llanma, O'zDJTSU nashriyoti, 2020. 228b.
2. Багдасаров А.Ю. - Специфика построения соревновательной деятельности дзюдоистов высокого класса при использовании интервальной мышечной тренировки //кандидата Педагогических наук: дисс.автореф., ВАК ЎзР 13.00.04., Ташкент. УзГИФК. 2010. – 131 с.
3. Платонов В.П., Запоржанов В.А. Теоретические аспекты отбора в современном спорте. Отбор, контроль и прогнозирование в спортивной тренировке. -Киев, 2009. – С. 5-16.

4. Bakiyev Z.A. – Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. O'zDJTI, 2011. 266 b.
5. Булгакова Н.Ж. Отбор в спортивном плавании // Плавание. – М.: Физкультура и спорт, 1973 – Вып.2, - С. 25.
6. Керимов Ф.А., Рузиев А.А., Рахимов М.М. Контроль совершенствования деятельности борцов //Актуальные проблемы теории и практики физической культуры: Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 10-летию независимости Республики Казахстан. – Алматы, 2001. – С.353-354.
7. Маткаримов Р.М. Вопросы временной адаптации тяжелоатлетов к различным климатогеографическим условиям. "Фан-спортга" ж. 2020. Б.4-7.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).